

**MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING TURLARI VA ULARNING YUQORI SINIF  
O'QUVCHILARIGA YOSH DOIRASIDA TA'SIRI**

**Abdullayev Yashnarjon Mxkamovich**

*Termiz davlat universiteti*

*Sport va boshqaruv faoliyati kata o'qituvchisi*

Mutaqillikka erishganimizdan so'ng jamiyatimiz fuqarolarining har tomonlama jismonan barkamol bo'lib shakllanishlari yo'lida g'amxo'rlik qilib kelinmoqda. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport xalqimizning ijtimoiy- ommaviy hayotida muhim o'rin tutadi. Vatanga muhabbat, unga fidoiylik eng olijanob tuyg'udir. Vatan va jamiyat sog'lom insonlarning ongli faoliyati natijasida ravnaq topadi. Ayniqsa, Vatan taraqqiyotining kelajagi yosh avlod zimmasiga tushadi.

Har soha o'zining rivojlanish ta'rixiga ega bo'lganidek harakatli o'yinlar, milliy harakatli o'yinlarning ham o'ziga xos tarixiy taraqqiyoti mavjud.

U jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan. O'yin insonga go'dakligidan to qariguncha hamrohdir. O'yinga faqat jismoniy tarbiya vositasi sifatida qarash noto'g'ri bo'ladi. Chunki u shaxsning tarbiyasi va shakllanishiga umumiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'yin doimo pedagoglar, psixologlar, faylasuflar, san'atshunoslar, meditsina xodimlari va boshqalarning diqqatini o'ziga tortib kelgan.

Hozirgi paytda o'yinning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida ikkita: materialistik va idealistik qarash mavjud. Materialistlarning fikricha o'yinni mehnat keltirib chiqaradi va uning rivojlanishini belgilaydi. Idealistlar esa o'yinni doimiy, o'zgarmas, deydilar va u mehnatga nisbatan birlamchi deb isbotlamoqchi bo'ladilar. Idealistik g'oya tarafdorlari o'yinda faqat tug'ma sezgilarnigina ko'radilar. O'yin va mehnatni bir-biriga qarama qarshi qo'yadilar. Odamlarning ongli o'yini va hayvonlarning ongsiz harakatlari orasidagi farqni ko'rmaydilar.

Harakatli o'yinlarning yo'nalishlari (mazmun) va tarbiyaviy jihatlarini e'tiborga olgan holda bir tizim-tartib bo'yicha be-rilsa talabalar va mutaxassis xodimlar uchun bir muncha qulaylik yaratadi. Ya'ni, bolalar tarbiya muassasalari, o'quv yurtlari, ulardagi kasb-hunar yo'nalishlariga qarab o'yinlarni o'rgatish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Milliy harakatli o'yinlarni o'rganish yoki unu oqitishdan maqsad albatta ijobiy samaradir:

1. Usib kelayotgan jism a'zolarining to'g'ri rivojlanishini ta'minlash (qomatni to'g'ri tutish, bo'g'inlar harakati),
2. Tana a'zolarining (qo'l, oyoq, bo'g'inlar va h.k.) egiluvchanligi, tez harakat qilishi, chidamliligi va boshqa tabiiy harakatlarni to'g'ri, talab darajasida o'stirishga karatish.
3. Aqliy va jismoniy tarbiyaning uygunligini ko'shib olib borish.
4. Mehnat va vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish.

5. Estetik jihatdan zavq olish, ruhiy holatlarni mukammallashtirish yo'llarini tarbiyalash.

6. Biron sport turi bilan shugullanishga havas uyg'otish va qiziktirish.

O'g'il va qiz bolalarga xos instinkt 2-3 yoshdan namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, yosh qizchalarda qo'g'irchoq o'yiniga moyillik sezilsa, o'g'il bolalar esa ish va urush qurollariga o'xshash o'yinchoqlar tanlab o'ynashadi.

Yosh bolalarning umumiy o'yinlari bo'lsa-da, taxminan 13 yoshdan so'ng qizlar va yigitlar alohida o'ynashadi.

Natijada yigitlarning "Podachi", "Chavandoz", "Cho'nqa shuvoq", "Oq suyak", "Oq tayoq", "Bo'ron jinni", "Ko'rpa yopindi", "Tepa kurash", "Yelkada kurash", "Qirq tosh", "Soqqa", "Quloq cho'zma" kabi o'yinlari shakllangan.

Qizlar esa "Durra", "Chori-chanbar", "Tortishmachoq", "Bolqon-bolqon", "Anaqay", "Bakki (Chekimtosh, To'ppa tosh)", "G'oz-g'oz" kabi o'yinlar o'ynashgan.

Katta yoshdagi erkaklarning uloq, kurash (olishish), chovgon kabi sport turlari bo'lsa, ayollarning esa ko'proq so'z, raqs, qo'shiqli o'yinlarni o'ynashlari odat bo'lgan.

V. Mashg'ulot, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar. Tarixiy jarayonda terimchilik, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, tikuvchilik kabi hunarlar bilan bog'liq o'yinlar shakllangani bizga ma'lum. Masalan, terimchilikda (daraxtga chiqib, meva terish, mo'ljalga tayoq va tosh otish musobaqa o'yinlari); ovchilikda ("ov o'yin", kamondan otish, uchar nishon, "kiyik ovi"); chorvachilikda ("Podasi", "Cho'pon va oqsoq bo'ri"); dehqonchilikda ("Mashoba", "Xirmon-xirmon"); hunarmandchi - l i k d a ("Sartarosh", "Kovushim", "Kashtachi", "Terimchi") kabi o'yinlar bo'lgan.

Harbiylarning ham o'z mashg'ulotlariga mos keladigan "Urush-urush", "Asir olish", "Qal'ani egallash" kabi o'yinlar mashhur bo'lgan.

Umumta'lim davlat ta'lim standartlarining "Jismoniy tarbiya" o'quv dasturida U-UP sinflarda harakatli o'yinlarga alohida o'rin berilgan. Lekin soatlar miqdori (2 soatdan) juda kam bo'lsada, darslarning maqsadi va mazmuniga qarab harakatli o'yinlarni tashkil qilish va ulardan maksadli foydalanishni ko'zda tutiladi. Dasturda ko'rsatilishicha V- sinfda: "Sokqa", "Olib qo-char", "Chirg'izak", "To'pni aylana ichiga tushirma", "Qo'riqchi", "Qu-loq cho'zma", "To'p o'rtaga", "Kengurucha", "Argamchi bilan estafeta", "Sakrab o't va qochib ket", "Birgalashib sakraymiz", "Kuchlilar va chaqqonlar", "To'siqlardan oshib o'tish", "Kim uzoqqa otadi", "Savat-ga to'p tushirish", "Tortishmachoq", "Uzatdingmi o'tir", "Doiraga tort", "Xo'rozlar jangi", "Juft-juft bo'lib tortishng", "Qarmoq-cha", "Qirq tosh", "Cho'pon", "Chavandozlar", "Qovun polizida", "Sehr-li kataklar", "Mashqni bajar, eslab qol" kabi harakatli o'yinlarni o'tkazish tavsiya etiladi. E'tirof etish lozimki, mazkur o'yimlar orqali barcha jismoniy sifatlarni shakllantirish va insoniy fazilatlarni tarbiyalashdek tarbiyaviy jihatlar mujassam etilgan.



Umuman olganda, harakatli o‘yinlar o‘g‘il va kiz bolalarning birgalikda (aralash) o‘ynashlari eng muhim insoniy fazilatlarni (do‘stlik, o‘zaro hurmat, bir-biriga ko‘maklashish va h.k.) shakllantirishda muhim o‘rin egallashini e’tirof etish lozimdir.

**ADABIYOTLAR:**

1. Abdumalikov R., Jismoniy madaniyat va sport ixtisosligidagi talabalarni boshqaruvchilik faoliyatlarga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari, T., UzDJTI nashr, 1994 yil.

2. Qudratov R, Ommaviy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sportning nazariy va amaliy asoslari, T, UzDJTI nashr, 2003 yil.